

UO'K(UDC, YDK):82.01/.09

ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA QUYOSH TIMSOLINING QIYOSIY-BADIIY TALQINI³

Ma'diyeva Adiba Dovudovna

Katta o'qituvchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: adibamadiyeva@gmail.com

Orcid ID: 0000-0003-3084-6616

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek va nemis zamonaviy she'riyatida quyosh obrazining poetik talqini qiyosiy, badiiy, falsafiy tahlil asosida o'rganiladi. Quyosh qadimdan insoniyat tafakkurida hayot, yorug'lik, umid va ilohiy qudrat timsoli sifatida qaralgan. Mazkur obraz har bir milliy adabiyotda turli madaniy, estetik va ruhiy-falsafiy mezonlar asosida talqin etilgan. O'zbek she'riyatida quyosh hayot manbai, ma'naviy uyg'onish, ijtimoiy qadriyatlar va milliy o'zlik ramzi sifatida gavdalansa, nemis she'riyatida, u ko'proq falsafiy iztirob, shubha, ruhiy ziddiyat va ichki kechinmalarning badiiy ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Xosiyat Rustamova, Zebo Mirzo, shuningdek, Jan Vagner, Anja Kampmann va Monika Rink kabi shoirlar ijodi misolida quyosh obrazining poetik vazifasi, ramziy qirralari va badiiy-estetik funksiyasi tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR

Zamonaviy she'riyat, quyosh, an'anaviy obraz, qadriyat, millat, madaniyat, ma'naviyat, ruhiyat, ramz.

Received: March 10, 2025

Accepted: April 4, 2025

Available online: May 2, 2025

³ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Ma'diyeva A. Zamonaviy o'zbek va nemis she'riyatida quyosh timsolining qiyosiy-badiiy talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 31-41.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗА СОЛНЦА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ И НЕМЕЦКОЙ ПОЭЗИИ

Маъдиева Адиба Давудовна

Старший преподаватель

Узбекский государственный университет

мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: adibamadiyeva@gmail.com

Orcid ID: 0000-0003-3084-6616

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье рассматривается поэтическая интерпретация образа солнца в современной узбекской и немецкой поэзии с использованием сравнительного художественно-философского анализа. С древних времен солнце воспринималось человеческим сознанием как символ жизни, света, надежды и божественной силы. Этот образ интерпретируется в каждой национальной литературе на основе различных культурных, эстетических и духовно-философских критериев. В узбекской поэзии солнце изображается как источник жизни, символ духовного пробуждения, социальных ценностей и национальной идентичности, в то время как в немецкой поэзии оно выступает, скорее, как художественное отражение философских поисков, сомнений, духовного конфликта и внутренних переживаний. В статье анализируются поэтическая функция, символические аспекты и художественно-эстетическая роль образа солнца в произведениях таких поэтов, как Сирожиддина Сайида, Икбола Мирзо, Хосият Рустамовой, Зебо Мирзо, а также Яна Вагнера, Ани Кампманн и Моники Ринк.

Современная поэзия, солнце, традиционный образ, ценность, нация, культура, духовность, психика, символ.

A COMPARATIVE-ARTISTIC INTERPRETATION OF THE SYMBOL OF SUN IN MODERN UZBEK AND GERMAN POETRY

Adiba Davudovna Madiyeva

Senior Lecturer,

Uzbekistan State World Languages University,

Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: adibamadiyeva@gmail.com

Orcid ID: 0000-0003-3084-6616

ABSTRACT

This article examines the poetic interpretation of the image of the sun in modern Uzbek and German poetry through comparative artistic and philosophical analysis. Since ancient times, the sun has been seen in human thought as a symbol of life, light, hope and divine power. This particular image is subject to interpretation within each respective national literature, as it is influenced by a variety of cultural, aesthetic, and spiritual-philosophical criteria unique to each society. In Uzbek poetry, the sun is portrayed as a source of life, symbol of spiritual awakening, social values and national identity. In German poetry, it appears more as an artistic reflection of philosophical fear, doubt, spiritual conflict and inner experiences. The article analyzes the poetic function, symbolic aspects, and artistic-aesthetic role of the sun's image in the works of poets, such as Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Khosiyat Rustamova, Zebo Mirzo, as well as Jan Wagner, Anja Kampmann, and Monika Rink.

KEY WORDS

Modern poetry, sun, traditional image, value, nation, culture, spirituality, psyche, symbol.

KIRISH

Quyosh obrazining adabiy tafakkurdagi talqini insoniyatning eng qadimiy va barqaror ramzlari sirasiga kiradi. Ilk bosqichda tabiat hodisasi sifatida idrok etilgan quyosh asta-sekin ilohiy qudrat, hayot manbai, yorug‘lik va ruhiy uyg‘onish timsoliga aylangan. Adabiyotda esa bu obraz shunchaki kosmik jism emas, balki insonning ichki kechinmalari, ma’naviy izlanishlari va estetik qarashlari bilan uyg‘un holda badiiy timsolga aylangan. Xususan, o‘zbek va nemis zamonaviy she’riyatida quyosh obrazining poetik talqini o‘ziga xoslik bilan ajralib turadi. Har ikki adabiyotda bu obraz chuqur ramziy, falsafiy va hissiy yuklama kasb etadi. Biroq bu talqinlar har bir millatning madaniy xotirasi, tarixiy tafakkuri va adabiy estetikasi bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. O‘zbek she’riyatida quyosh hayot, umid, milliy g‘urur, yangilanish va ruhiy poklanish timsoli sifatida tasvirlanadi. U ijtimoiy ong va qadriyatlar bilan bog‘liq holda inson hayotini yorituvchi, ruhiyatni uyg‘otuvchi kuch sifatida gavdalanadi. Nemis zamonaviy she’riyatida quyosh ko‘pincha inson ruhiyati bilan bog‘liq falsafiy iztirob, ichki ziddiyat va tafakkurning badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Ba’zan quyosh iliqlik va najot emas, balki jazirama, yolg‘izlik va fosh etuvchi haqiqat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa adabiy obrazga yangicha estetik va falsafiy qiyofa bag‘ishlaydi.

Ushbu maqola o‘zbek va nemis zamonaviy she’riyatida quyosh obrazining poetik talqini qiyosiy tahlil asosida yoritilib, uning har ikki adabiy makondagi badiiy funksiyasi, ramziy mazmuni va estetik o‘ziga xosliklari ochib beriladi.

ASOSIY QISM

O‘zbek zamonaviy she’riyatida quyosh obrazi hayotning ilk manbai, yaratuvchi kuch va nur tarqatuvchi manba sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U tabiatning bir qismigina bo‘lib qolmay, inson ruhiy olamining chuqur timsoli sifatida ham talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, mumtoz shoirlar uni ko‘pincha oshiq va pir obrazi bilan uyg‘unlashtiradilar. “Avvalo quyosh – oshiq va to‘g‘ri yo‘ldan maqsad sari borayotgan pir, rahnamo ramzi. Oshiq va pining quyosh timsolida sintezlanishi uning mohiyatini chuqur anglash imkonini yaratadi... Zarralar – oftob;

oshiq – yor demakdir. Ular hodisa va mohiyat sifatida yagonalikka, birlikka ega.” (Adizova I, 2020, 31-32). Bu qarash quyosh obrazining ma’naviy va falsafiy mazmun kasb etishini ko’rsatadi. Shu ma’noda, Alisher Navoiy baytlarida ham quyosh obrazi bevosita inson qalbining ichki olovi, oshiq iztiroblarining timsoli sifatida yuzaga chiqadi.

Mehr emas, ohim o’tidin ko’kka yetmish bir sharar,
ayb emasdur gar desam: “Dam ursam aflok o’rtanur”

baytini adabiyotshunos olim O. Madayev quyidagicha ta’riflaydi: “Alisher Navoiy osmondagi quyosh aslida men – oshiq ohining bir uchqunidir. Agar rostmana dam ursam, oh cheksam, falak kuyib ketadi, demoqchi.”(Madayev. O., 2010, 102) Olim baytdagi oshiq ohining qudratini yorqin talqin qilib, uni quyoshning paydo bo’lishi bilan bog’laydi. Bu yondashuv oshiqning ichki kuyganlarini ilohiy darajadagi ta’sir kuchi sifatida ko’rsatadi va oh orqali tabiat unsurlariga ta’sir o’tkazuvchi ruhiy holat tasvirlanadi. Natijada, baytda faqat muhabbat emas, balki oshiq qalbining ichki olovi, uning mehr va iztirobdan yongan ruhiyati ko’kka yetgan sharar misolida teran poetik ifodasini topadi. Demak, shoirlar quyoshni insonning ma’naviy taraqqiyoti, yangilanishi va qalb quvvati ramzi sifatida ham talqin qiladilar. Bu an’anaviy obraz talqinini o’rganish uchun bugungi kun she’riyatiga nazar tashlaymiz.

Sirojiddin Sayyid “Iftixor” she’rida quyoshni inson hayotining manbai va ilhom timsoli sifatida tasvirlagan. Quyidagi satrlarda quyosh farzandi iborasi insonning nurli kelajakka intilishini ifoda etadi:

*Men quyosh farzandiman, deb ne uchun zavqlanmayin,
Beshigimni shu ’ladin tebratdi osmonim mening.*(Саййид С., 2005, 169)

Quyosh insonning ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi qudratli manba sifatida talqin etilgan. Bu ifoda shoirning quyoshdan ilhom olishi, ruhiy quvvatni yangilash ramzi sifatida ham ko’rinadi. So’nggi misra quyoshning yaratuvchilik ramzi sifatidagi mohiyatini ochib beradi. Shoir quyoshni jonli mavjudot sifatida tasvirlab, uni insonga g’amxo’rlik qiluvchi qiyofada namoyon etgan. Quyosh qadimiy ramz sifatida hayot, nur va yangilanish timsoli bo’lib kelgan. Ushbu tasvir quyoshning qadimiy an’analardagi falsafiy mohiyatini saqlab qolgan.

Iqbol Mirzoning “O‘zbek” she’ridagi quyidagi parchada quyosh insonning tarixiy-ijtimoiy qarashlari bilan bog‘lanib, uning ibtidoiy tasavvurlari va ilk sharq e’tiqodlarini yodga soladi:

Bir zamon olovni iloh bilgan el,

Quyoshga qarashni gunoh bilgan el. (Mirzo I., 2010, 15)

Quyosh antik davrda muqaddas ramz bo‘lganini va bu qarashlar zamon o‘tishi bilan o‘zgarganini ko‘rsatadi. Olovni iloh bilgan va quyoshga qarashni gunoh bilgan qadimiy va zamonaviy qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi. Shoirning bu o‘rinda ritorik mulohazasini payqash mumkin, ya’ni shoir quyosh insonning e’tiqodi va jamiyat rivojlanishidagi o‘rni haqida fikr yuritadi.

Аста чиқиб келар қуёш ер томон -

Ҳаммага бахтиёр жилмаяр ҳануз. (Рустамова X., 2006, 102)

Xosiyat Rustamova qalamiga mansub ushbu misralar quyoshning yangilanish ramzi tasvirlanadi. Bu yerda quyoshning chiqishi tabiatning yangilanishi, hayotning uyg‘onishi va baxt ramzi sifatida talqin qilingan. Quyosh nurlari insonlarga ma’naviy kuch-quvvat va umid baxsh etadi. Shoir quyoshning chiqishini hayotning davomiyligi sifatida talqin qiladi.

Zebo Mirzoning “Saraton” she’rida quyosh obrazi nafaqat tabiat timsoli, balki badiiy jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida namoyon bo‘ladi:

Yuksakdan; yalang‘och suvlar boshiga

Quyosh yog‘dirarkan oltin nayzalar. (Mirzayeva Z, 2011, 16)

Shoira quyosh nurlarini “oltin nayzalar”ga qiyoslab, uning nafaqat yorug‘lik, balki shiddat va qudrat manbai ekanini ko‘rsatadi. Bu tasvirda quyosh bir vaqtning o‘zida hayot baxsh etuvchi va o‘tli jazirama bilan sinovga soluvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Nayza obrazi uning ta’sirchanligini kuchaytirib, tabiatga ilohiy bir bosim o‘tkazayotganidan darak beradi. Quyosh she’riyat olamida shunchaki osmon jismi emas, u kurashuvchi, yondiruvchi va yaratuvchi timsolga aylanadi.

Quyosh obrazi zamonaviy nemis she’riyatida ham yorug‘lik, umid va o‘zgarish ramzi sifatida talqin qilinib, inson ruhiyati bilan bog‘liq ifodasi aks etadi. Jumladan, Yan Vagnerning ushbu misralarida quyosh inson hayotining og‘ir

lahzalarida yorituvchi hamda ularga yordamchi quvvat bag'ishlovchi ramz sifatida talqin qilingan:

Es ist ein morgen, wenn die sonne

dich findet mir vor durst gespaltenem schädel. (Wagner J., 2014, S. 127)

Tashnalikdan boshim yorilgan mahal

Quyosh seni men-chun izlab topadi bu tong. (Tarjima bizniki – M.A.)

She'rda quyosh odatiy ilqlik timsoli emas, balki jazirama, tashnalik va iztirobni kuchaytiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. "Vor Durst gespaltenem Schädel" tasvirida tashnalikdan yorilgan bosh obrazi insonning jismoniy va ruhiy toliqqanlik holatini aks ettiradi. Quyosh esa fosh etuvchi, qochib bo'lmaydigan taqdir ramzi. U seni izlaydi va topadi, lekin bu qutqarish emas, balki azobning davom etishi. She'r insonning taqdir oldidagi ojizligi va hayotning shafqatsizligini aks ettiradi. Minimalizm va kuchli metaforalar orqali shoira ichki iztirobni ifodalagan.

Die Sonne kann dem Mond

den Rücken nicht wärmen. (Kampmann A., 2016, 80)

Quyosh oyning yelkasiga

Bosh qo'yolmaydi. (Tarjima bizniki – M.A.)

Anya Kampmann bu misralarida quyosh va oy o'rtasidagi munosabatlar orqali inson hayotidagi ziddiyat va uyg'unlikni tasvirlaydi. Quyosh oy tufayli o'z kuchini ko'rsata olmasligi inson his-tuyg'ularidagi uzilishlariga ishora qilingan. Quyosh va oy, issiq va sovuq, kun va tun kabi qarama-qarshi ifodalar kuchli falsafiy qiyoslashni taqdim etadi. Quyosh hayot quvvati ramzi sifatida, oy esa orom va tinchlik ramzi sifatida keltiriladi. Bu tasvir hayotdagi uyg'unlik va ziddiyatni yoritadi.

Monika Rink quyoshni eng yorqin va jozibali osmon hodisasi sifatida tasvirlaydi:

Dies ist das blondeste aller Himmelsgeschosse – Sonne?...

Birken imitieren Lichtmaschinen. (Rinck M., 2019, 5)

Quyosh - fazo olamining eng yorqin qurolimi?...

Taqlid qilib qayinlar ham eslatar chiroqlarni. (Tarjima bizniki – M.A.)

"Dies ist das blondeste aller Himmelsgeschosse – Sonne?..." misrasi quyoshning yorug'lik timsoli ekanligini ta'kidlaydi. Shoir "blondeste" (eng yorqin, eng jiloli) so'zi orqali quyoshning oltin nurlari va o'ziga xos estetik jozibasini ifodalaydi. Biroq jumlaning so'roq shaklida bo'lishi quyoshning mutlaq ustunligini shubha ostiga qo'yadi. Bu tasvir orqali quyosh faqat yorug'lik manbai emas, balki inson tafakkuri va idroki bilan bog'liq ramziy obraz sifatida ko'rinadi. Shoir quyoshni mukammal, lekin nisbiy yorug'lik manbai sifatida ko'rsatib, uni shunchaki tabiiy ob'ekt emas, balki inson tasavvurining bir qismi ekanligini his ettiradi.

O'zbek zamonaviy she'riyatida quyosh obrazi asosan hayotning ilk manbai, yorug'lik va harakat boshlanishi, ma'naviy taraqqiyot ramzi sifatida tasvirlanadi. Bu yondashuvning ildizlari mumtoz adabiyotdagi ramzlar tizimiga, xususan, quyoshning oshiq yoki pir obrazlari bilan uyg'unlashtirilgan talqinlariga borib taqaladi. Quyosh bu yerda shunchaki kosmik hodisa emas, balki insonning ruhiy olamiga kirib boradigan, uni yoritadigan, unga yo'l ko'rsatuvchi ichki rahnamodir.

Jumladan, Sirojiddin Sayyidning "Iftixor" she'rida quyosh milliy o'zlik, kelajak va ilhom manbai sifatida gavdalanadi. "Men quyosh farzandiman" deya faxr bilan aytilgan satrlar shoirning o'z hayot manbaini quyoshdan — ya'ni nurdan, umiddan, ijoddan izlashini ifodalaydi. Quyosh bu yerda jamiyatning, millatning uyg'onish ramziga aylanadi. Iqbol Mirzo esa quyoshni tarixiy ong va e'tiqod bilan bog'laydi. Uning satrlarida qadimiy e'tiqodlar va zamonaviy tafakkur o'rtasidagi ziddiyat orqali insoniyat ongining evolyutsiyasi ifodalanadi. Shoir quyoshga qarashni gunoh deb bilgan zamonlar yodga olinarkan, aslida quyoshga qarash - haqiqatga, hayotga, yangilanishga qarashdir, degan falsafiy xulosani ilgari suradi.

Xosiyat Rustamova esa quyosh obrazini yanada nafosat bilan, hayotga yaqinroq talqin qiladi. Quyosh she'rdagi tong nurlari orqali uyg'onish, poklanish, umid va baxt ramzidir. Shoiraning ifodasida quyosh yurakka iliqlik, qalbga kuch olib kiradi, bu obraz ruhiy yangilanishni anglatadi. Zebo Mirzoning "Saraton" she'rida esa quyosh mo'jizakor kuch sifatida tasvirlanadi. "Oltin nayzalar"

metaforasi orqali quyoshning jazirama issigʻi nafaqat hayot beruvchi, balki sinovlar, toblanish va bardosh talab qiluvchi kuch sifatida ifodalanadi. Bu yerda quyosh bir vaqtning oʻzida ham gʻamxoʻr, ham sinovchan obraz sifatida chiqadi.

Demak, oʻzbek zamonaviy sheʼriyatida quyosh hayotiy quvvat, ruhiy poklanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar manbai sifatida talqin qilinadi. U milliylik, ilhom, umid, yangilanish va kurash ramziga aylanadi.

Nemis zamonaviy sheʼriyatida esa quyosh obraziga yondashuv ancha falsafiy va koʻproq botiniy kurashga yoʻnaltirilgan. Quyosh yorugʻlik manbai sifatida emas, balki ichki iztirobni yorituvchi, haqiqatni fosh etuvchi, taqdir ramzi sifatida ifodalanadi. Jumladan, Jan Vagner sheʼrida quyosh iztirob ichida qolgan odamni izlab topadi. “Tashnalikdan bosh yorilishi” obrazi bilan inson bardoshi sinalsa, quyosh bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Quyosh bu sheʼrda fosh etuvchi, qochib qutulib boʻlmaydigan ichki azoblar timsoli sifatida gavdaanadi. U hayotni yoritmaydi, balki ichki iztirobni oshkor etadi. Anja Kampmann tasvirida quyosh va oy oʻrtasidagi ziddiyat orqali hayotdagi uygʻunlik va boʻlinishlar aks ettiriladi. “Quyosh oyning yelkasini isit olmaydi” ifodasi oʻzaro munosabatlar, tuygʻular orasidagi sovuqlik, issiq haroratga intilish belgisi koʻzga tashlanadi. Shoir quyosh harorat va harakat, oy esa orom va sokinlik ramzlari sifatida qarama-qarshi hayot falsafasini tushuntiradi. Monika Rink quyoshni idrok bilan bogʻliq obraz sifatida tasvirlaydi. Shoir quyoshni “fazoning eng yorqin quroli” deb atarkan, bu yorugʻlik manbai ustuvorligiga shubha bilan qaraydi. Quyosh fizik hodisa boʻlibgina qolmay, inson tafakkurini shakllantirgan tasavvur timsoli hamdir. Demak, ushbu sheʼriyatda quyosh obrazi koʻproq ichki iztirob, hayotiy ziddiyatlar, tafakkur maydoni sifatida namoyon boʻladi. U tashqi tabiatdan koʻra, inson ruhining ichki manzaralarini yorituvchi obraz sifatida qoʻllanilgan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, quyosh obrazi har ikkala adabiyotda ham muhim poetik timsol boʻlib, oʻzaro farqlanuvchi falsafiy, ramziy va hissiy yoʻnalishlarda talqin qilinadi. Oʻzbek sheʼriyatida u koʻproq ijtimoiy, milliy,

maʼnaviy, hayotbaxsh va umid bagʻishlovchi obraz sifatida koʻzga tashlanadi, yaʼni inson hayoti bilan bevosita bogʻliq boʻlib, uning maʼnaviy yuksalishi va

kelajakka intilishini ramzlashtirsa, nemis she'riyatida esa quyosh falsafiy, estetik, ochiq-oshkoralik va fosh etuvchi obrazga aylanadi. U insonning ruhiy ichki kechinmalari va hayotiy ziddiyatlarni namoyon etadi.

Quyosh obrazi har ikkala adabiyotda ham insoniyat tafakkurining yuksak darajadagi poetik timsoli bo'lib, bu obrazga bergan yondashuvlar har ikki millatning madaniy tafakkuri, ruhiy olami va badiiy estetikasi o'rtasidagi farqni yorqin aks ettiradi. Bu esa bizga adabiyot orqali inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni teran anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O. Madayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.- B. 102
2. Адизова И. Увайсий шеъриятидаги поэтик тафаккурнинг янгилиниши. дисс. автореферати. - Тошкент, 2020.-Б. 31-32
3. Саййид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. Сайланма. – Тошкент: Шарқ., 2005. – Б. 169
4. Мирзо И. Агар жаннат кўкда бўлса... . Шеърлар. Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти, 2010. – Б. 15
5. Рустамова Х. Девор. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б. 102
6. Зебо Мирзо. Ишқ.... Тошкент: Академнашр, ,2011. Б.- 16
7. Wagner J. Regentonnenvariationen.- München: Hanser Berlin im Carl Hanser Verlag, 2014. – S. 127
8. Kampmann A. Proben von Stein und Licht. - München: Carl Hanser Verlag, 2016.- S. 80
9. Rinck M. Alle Türen. Gedichte. – Berlin: Kookbooks Verlag, 2019.- S 5
10. Langenscheidt. Power Wörterbuch. Deutsch als Fremdsprache. Neubearbeitung. Herausgeber Professor Dr. Dieter Götz.- Pons GmbH, Stuttgart, 2016. S. 1122

REFERENCES

1. Madayev, O. (2010). *Uzbek Folk Oral Creativity*. Tashkent: Mumtoz So‘z. p. 102.
2. Adizova, I. (2020). *Renewal of Poetic Thinking in Uvaysiy’s Poetry* (Author’s abstract of dissertation). Tashkent. pp. 31–32.
3. Sayyid, S. (2005). *Give Your Balconies to the Swallows*. Selected Works. Tashkent: Sharq. p. 169.
4. Mirzo, I. (2010). *If Paradise Is in the Sky....* Poems. Tashkent: Sharq Publishing and Printing Concern. p. 15.
5. Rustamova, Kh. (2006). *The Wall*. Tashkent: Gafur Ghulom Publishing and Printing Creative House. p. 102.
6. Mirzo, Z. (2011). *Love....* Tashkent: Akademnashr. p. 16.
7. Wagner, J. (2014). *Regentonnenvariationen*. Munich: Hanser Berlin im Carl Hanser Verlag. p. 127.
8. Kampmann, A. (2016). *Proben von Stein und Licht*. Munich: Carl Hanser Verlag. p. 80.
9. Rinck, M. (2019). *Alle Türen. Poems*. Berlin: Kookbooks Verlag. p. 5.
10. Langenscheidt. (2016). *Power Dictionary: German as a Foreign Language*. Revised edition. Ed. Prof. Dr. Dieter Götz. Stuttgart: Pons GmbH. p. 1122.